SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KAYUMOV NODIR NAYIMOVICH

FORS-TOJIK ADABIYOTIDA TASHXIS SAN'ATINING TARIXIY SHAKLLANISH TAMOYILLARI VA UNING NAZARIY XUSUSIYATLARI
(Qadimgi davrdan XII asrgacha)

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik adabiyoti)

FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

UDK: 891. 5

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам

Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences

Kayumov Nodir Nayimovich
Fors-tojik adabiyotida tashxis san’atining tarixiy shakllanish tamoyillari va uning nazariy xususiyatlari (Qadimgi davrdan XII asrgacha) 3

Каюмов Нодир Найимович
Принципы исторического формирования литературного приема олицетворения в персидско-таджикской литературе и его теоритеческие особеннсти (от античности до XII века) 23

Kayumov Nodir Nayimovich
The principles of the historical formation of personification in Persian-Tajik literature and its theoretical features (from ancient times to the XII th century).... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 50

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KAYUMOV NODIR NAYIMOVICH

FORS-TOJIK ADABIYOTIDA TASHXIS SAN'ATINING TARIXIY SHAKLLANISH TAMOYILLARI VA UNING NAZARIY XUSUSIYATLARI
(Qadimgi davrdan XII asrgacha)

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik adabiyoti)

FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil.1974 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Hamroyev Jumaqul** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Misbohiddin Mahmudzoda Narziqul** filologiya fanlari doktori, professor
	Muxibova Ulfatxon Uchqunovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "25" may soat 11 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail:rector) @samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh o'quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "10" may kuni tarqatildi.
(2023-yil "10" may dagi 115-raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

M.Q.Muhiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.A.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida she'riyat poetikasi, uning ichki kompozitsion tuzilishi, poeziyaning tarixiy me'yoriy qonuniyatlari borasida amalga oshirilgan izlanishlar yetakchi o'rin egallamoqda. Sharq mumtoz she'riyatining badiiyati, mumtoz she'riyatda lafziy va ma'naviy san'atlarning o'rni, shoir poetik mahoratining tadrijiy takomil tamoyillari, she'riyatning shakliy va ma'noviy komponentlari, badiiy vositalar bilan bog'liq muammolar zamonaviy adabiyotshunoslik ilmida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda mumtoz she'riyatga xos bo'lgan talmeh, tajnis, tashbih, tashxis (personifikatsiya), jonlantirish, intoq silsilaviy atamalarini ilmiy jihatdan asoslash, ularni tasnif etish, badiiy matn kontekstidagi funksional xususiyatlarini yoritish adabiyotshunoslikning zamonaviy taraqqiyot prinsiplarini belgilaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosida mumtoz so'z san'atida mavjud eng muhim xususiyatlarni zamonaviy badiiy – estetik tamoyillar asosida tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, badiiy asarning shakliy va mazmuniy unsurlarni o'zaro badiiy tanosib nuqtayi nazaridan sinxron va diaxron tarzda tadqiq etish imkonini yuzaga chiqardi va oxirgi yillarda ko'plab yangi ilmiy izlanishlarning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, mumtoz she'riyatda shakl va mazmun unsurlarining o'zaro uyg'unligi, she'riyatda badiiy tasvir vositalarining funksional xossalari, uning maxsus adabiy va ijtimoiy oqimlarga bog'liqligi, klassik adabiyot namunalarining hayotiy – real voqeliklariga bog'liq jihatlari, mumtoz she'riyatda tashxis (personifikatsiya), jonlantirish, intoq kabi silsilaviy-ma'naviy san'atlarining tarixiy va nazariy asoslarini aniqlash kabi dolzarb muammolar asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida adabiyotshunoslik ilmida mumtoz so'z qadri va uning badiiyatini tadqiq etish borasida yangi yo'nalishlar vujudga kelmoqda. She'riyatda bayon etilgan yuksak tarixiy va falsafiy g'oyalarni aniqlash, shoir mahoratini baholash, so'z balog'ati va kamolotini o'rganish, mumtoz poetik normalarini tahlil va tadqiq etish, ularning nazariy xususiyatlarini belgilash uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. "Yoshlarni gumanistik g'oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so'z san'atining o'rni va mas'uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda"[1]. Shunday ekan badiiy san'atlarning ma'naviy turkumiga kiruvchi tashxis san'ati ta'sirchan she'riy obrazlarni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Fors-tojik va jahon she'riyatida tashxis san'atining shakllanish va rivojlanish omillari, uning nazariy-poetik xususiyatlari, badiiy obrazlar yaratishdagi o'rnini belgilash hozirgi tojik adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016–yil 13–maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 2006–yil 25–avgustdagi PQ-451-son "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish

[1] Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. www.xabar.uz. 2018 йил, 7 август.

to‘g‘risida”, 2017–yil 20–apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017–yil 24–maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, ilmiy-pedagogik faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Badiiyat ilmi nomi bilan mashhur o‘rta asrlar fors-tojik she’rshunosligida tashxis va jonlantirish san’ati uzoq asrlar davomida alohida va mustaqil san’at turi sifatida qayd etilmagan. Mazkur san’atning ko‘plab namunalari xalq og‘zaki ijodi, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da, ayniqsa, mumtoz fors-tojik adabiyotida keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, u klassik she’rshunoslikda alohida badiiy san’at sifatida e’tirof etilmagan. O‘rta asrlar fors-tojik she’rshunoslaridan Shams Qays Roziy, Atoulloh Mahmud Husayniy hamda XX asr adabiyotshunos olimi Shibliy No‘’moniy[2] tashxisni tashbih va istiora san’atlarining maxsus turi sifatida zikr etishgan.

Tashxis san’atining shakllanish omillari, nazariy-poetik xususiyatlari, badiiy obrazlar yaratishdagi ahamiyatini o‘rganish borasida jahon xalqlari adabiyotshunosligida ayrim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va ba’zi bir nazariy mulohazalar bildirilgan. Xususan, ilk bor Aristotel tashxisning xususiyatlari haqida gapirib, unga majoz san’atining bir turi sifatida qaraydi. Pier Fontane, Le Litre va Patrik Bekri tashxisning nazariy xususiyatlari, shakli va uning istiora, tashbih, majoz hamda metonimiya bilan aloqalari borasida o‘z fikrlarini bildirishgan[3]. Akademik M.Arnaudov tashxis va jonlantirish san’atining paydo bo‘lish omillarini madaniy jihatdan qoloq va ongi rivojlanmagan qabilalarning borliq haqidagi dunyoqarashlari sifatida o‘rganadi[4]. Rus adabiyotshunosligida M.I.Steblin-Kamenskiy, A.Kvyatkovskiy, A.Beletskiy, I.V.Rodnyanskaya, A.N.Veselovskiy, A.F.Loseyev va boshqalar tomonidan tashxis san’atining nazariy masalalari, uning qadimgi davr asotir va miflarda shakllanish jihatlari va poetikada tutgan o‘rni borasida fikrlar bildirilgan[5]. Muhammadrizo Shafeiy Kadkaniyning “Suvari xayol” risolasi Eron

---

[2] Шамси Қайси Розӣ. Ал мӯъҷам. (Муаллифи сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандаи чоп Урбатулло Тоиров). – Душанбе: Адиб, 1991. – 291 с; Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадоеъ-ул-саноеъ. –Душанбе: Ирфон, 1974. – 156 с; Шиблии Нӯмонӣ. Шеър–ул–Аҷам. Ҷилдҳои савум, чаҳорум ва панҷум. – Душанбе: ДДОТ, 2016. – 298 с.

[3]Аристотель. Поэтика (поэзия санъати ҳақида). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 152 б; Pierre Fontanier. Les Figures du discours. – Paris: Flammarion, 1977, –P. 41; Patrick Bacry. Les Figures de style et autres procédés stylistiques, – Paris: Belin, coll. Collection Sujets, 1992. – 335 p.

[4] Арнаудов М. Психология литературного творчество – Москва: Прогресс, 1985. – 231-232 стр.

[5] Стеблин-Каменский М. И. Миф. –Л.: Наука,1976. –56 стр; Квятковский А.Поэтический словарь. –Москва 1964. – 36 стр; Белецкий А.Изображение живой и мёртвой природы, в его кн.: Избранные труды по теории литературы. –Москва, 1964 –39 стр; Роднянская И.В. Олицетворение, в кн.: Краткая литературная энциклопедия, Т.5. Москва, 1968; Веселовский А.Н. Психологический параллелизм и его формы в отражении поэтического стиля // Историческая поэтика. — Москва, 1989; Лосев А.Ф.Античная мифология в её историческом развитии –Москва, 1957.

she’rshunosligida tashxis san’atining tadqiq etishda muhim omil bo‘ldi. Afg‘onistonlik olim ustoz Malikushshuaro Abdulhaq Betob tashxis va intoq san’atlarini birgalikda sharhlab, ularni yagona bir badiiy san’at deb biladi[6]. O‘zbek adabiyotshunosligida tashxisni o‘rganish, uning she’r badiiyatida tutgan o‘rnini belgilash borasida H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova, N.Hotamov, B.Sarimsoqov, A.Rustamov, A.Hojiahmedov, Y.Is’hoqov, T.Sobitovalar ilmiy mulohazalarini bayon etishgan[7].

Tojik adabiyotshunosligida tom ma’noda birinchi marotaba tashxis san’atining nazariy xususiyatlari haqida T.Zehniy “San’ati suxan” kitobida ma’lumot berib o‘tgan. Keyinchalik M.Shukurov, R.Hodizoda, T.Abdujabborov, S.Tabarovlar adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘atlarida, A.Sattorzoda, S.Sa’diyev, M.Mulloahmadov, F.Huseynzoda, A.Boboyevlar tashxis san’atining nazariy va poetik xususiyatlari, genezisi va badiiyat ilmidagi o‘rni, qadimiy xalq bayramlarini tasvirlash jarayoni hamda uning Ro‘dakiy, Bashshor Marg‘aziy, Farruxiy, Manuchehriy kabi atoqli shoirlar ijodida qo‘llanish holatlari borasida izlanishlar olib borishgan[8]. Yuqorida tilga olingan nazariy kitoblar va ilmiy risolalarning aksariyatida tashxis san’atining ayrim jihatlariga oid tushunchalar berilgan va ular tashxis san’atining poetik xususiyatlarini aniqlash uchun yetarli emas. Aytish mumkinki, tashxis san’ati kompozitsiyasi, badiiy tuzilishi, shakli va genezisi, badiiy obraz yaratishdagi o‘rni jahon adabiyotshunoslari, jumladan, tojik adabiyotshunoslari nazaridan chetda qolib kelgan. Binobarin, ushbu tadqiqot tashxis san’ati tarixining ayrim qirralarini va uning mumtoz fors-tojik shoirlari ijodiga qo‘shgan hissasini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Adabiy janrlar va ijodiy uslublar xilma-xilligi” mavzusidagi nazariy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tashxis san’atining nazariy va poetik xususiyatlari, shakllanish tarixi va rivojlanish omillari, shakliy va mazmuniy jihatlari, shuningdek,

---

[6] Муҳаммадризо Шафеъии Кадканӣ. Сувари хаёл дар шеъри форсӣ. –Теҳрон: Огоҳ, 1389. – 151 с; Маликушшуаро устод Бетоб. Илми бадеъ. – Кобул,1347 – 27-28 с.

[7] Ҳомидий Ҳ. Абдуллаева Ш. Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970; Ҳотамов Н. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979; Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998; Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадеият малоҳати. –Тошкент: Шарқ 1998; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006; Мамажонов З.А.Ўхшатиш асосидаги шеърий санъатларнинг назарий тавсифи ва таснифи. Автореферат. –Тошкент 2017; Собитова Т. Интоқ санъати. Academic Research in Educational Sciences журнали, Wolume 2. Issue 10 2021 йил.

[8] Зеҳнӣ Т. Санъати сухан. –Душанбе: Ирфон, 1967; Шукуров М. Ҳодизода Р. Абдуҷабборов Т. Фарҳанги истилоҳоти адабиётшиносӣ. – Душанбе: Ирфон, 1966; Х.Мирзозода Луғати мухтасари истилоҳоти адабиётшиносӣ. Душанбе: Ирфон, 1988; Табаров С. Луғати русӣ-тоҷикии истилоҳоти адабиётшиносӣ. – Душанбе: Маориф, 1988; Сатторзода А. Баргузидаи осор. Бахши I. Такмилаи бадеъии форсии тоҷикӣ. – Душанбе: “Дониш”. 2021; Саъдиев С. Васфи Меҳргон дар шеъри асрҳои X-XII-и форсу-тоҷик. Дар шакли дастнавис; Саъдиев С. Поэтикаи қасидаҳои модари май-и Одамушшуаро Рӯдакии Самарқандӣ ва Башшор Марғазӣ. Дар шакли дастнавис; Муллоаҳмадов М. Фаррухии Сиистонӣ. –Душанбе: Дониш, 1978; А.Бобоев. Мавзӯъ ва сабки ашъори Манучеҳрӣ.- Душанбе: Дониш, 1990; Ҳусейнзода Фарҳод. Тамсил ва тавсиф – Душанбе: 1996.

qadimgi Eron xalqlari adabiyoti va fors-tojik mumtoz she'riyatining badiiy tuzilishidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va tojik adabiyotshunosligida tashxis san'atining o'rganilish tarixi, darajasi hamda muammolarini mumtoz va zamonaviy ilmiy manbalar asosida tadqiq etish. Tashbih, tashxis (personifikatsiya), jonlantirish, intoq kabi poetik hodisalarning mushtarak va farqli jihatlariga doir ilmiy qarashlarni asoslash;

fors-tojik yoxud dariy adabiyotining ilk og'zaki va yozma manbalari asosida tashxis san'atining genezisi hamda shakllanish omillarini ochib berish;

tashxis san'atining qadimiy mifologiya va ibtidoiy e'tiqodlar bilan bog'liqlik darajasini yoritish hamda asoslash. "Avesto" kitobining poetik tizimida tashxis san'atining o'rni va badiiyatini dalillash;

fors-tojik mumtoz she'riyatining ilk manbalarida tashxis san'atining samaradorligi, badiiy xususiyatlari va poetik obraz yaratishdagi mavqeini ko'rsatish;

XI-XII asrlar fors-tojik she'riyatida tashxis san'atining poetik takomili va bunda xamriyalar hamda peyzaj lirikasining o'rni masalasini isbotlash;

tashxis san'atining sinkretik xususiyati, boshqa badiiy san'atlar bilan uyg'unlashuv hodisasining poetik qonuniyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini "Avesto" kitobining 2001-yili Puri Dovud tarjimasi asosida Tojikistonning "Qonuniyat" nashriyoti tomonidan chop etilgan nusxasi, Ro'dakiy she'rlari, Ro'dakiy zamondoshlari she'riyati, Farruxiy Siistoniy, Manuchehriy Domg'oniy hamda Adib Sobir Termiziy kabi shoirlarning devonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini jonlantirish va tashxis san'atining nazariy va poetik masalalarini qadimgi davr Eron xalqlari og'zaki ijodi, yozma manbalari va fors-tojik she'riyati namunalari asosida zamonaviy adabiyotshunoslik jihatidan o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, matn tahlili kabi tadqiq usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tashxis san'ati antropomorfik, totemistik, animistik va allegorik qarashlar natijasida shakllanganligi, bu san'at ibtidoiy insonlarning tabiatga, uni o'rab turgan muhitga nisbatan qarashlari natijasida vujudga kelganligi isbotlangan;

nazariy poetikada tashxis san'ati istiora, majoz va tashbih san'atining maxsus bir turi sifatida qayd etilgan, ishda tashxisning mazkur so'z san'atlaridan butunlay farqlanishi va bu san'at jahon adabiyotshunosligida mavjud personifikatsiya, jonlantirish, intoq kabi so'z san'atlarining maxsus shakli ekanligi asoslangan;

"Avesto" kitobining badiiy tuzilishida tashxis asosiy tasvir vositasi ekanligi, u orqali tabiat unsurlari, moddiy jismlar, mavhum tushunchalar, hayvonot va o'simlik olami vakillari inson qiyofasiga kirib, Mitra, Tishtar, Ozar, Haum kabi ta'sirchan va xayoliy obrazlar yaratilganligi dalillangan;

tashxis san'ati Somoniylar va G'aznaviylar davri shoirlari ijodida tabiat manzaralarini tasvirlash, sharob tayyorlash jarayoni badiiy talqini hamda qadimgi davr adabiyotining badiiy obrazlar yaratish an'analarini davom ettirish uchun qo'llanilganligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fors-tojik adabiyotida tashxis san'atini yangicha tamoyillar asosida o'rganish, mumtoz poeziyada badiiy tasvir vositalarining me'yoriy qonuniyatlari, ularning shakllanish omillari, genezisi, mazmun-mohiyati, nazariy va funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi dalillangan;

mumtoz fors-tojik adabiyotida tashxis san'atining tarixiy va nazariy xususiyatlari, mazkur san'atning poeziya tili va uslubi takomilidagi mavqei, uning badiiyatiga ta'siri masalasi qadimgi davrdan XII asrgacha yaratilgan alohida asarlar misolida ochib berilgan;

tadqiqot materiallaridan o'quv qo'llanma va dasturlarni yaratishda, badiiy san'at nazariyasiga doir izohli terminlar lug'atini tuzishda, mumtoz adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bo'yicha maxsus kurslar tashkil etishda va she'rshunoslik kabi fanlarning ta'limi jarayonida o'quv qo'llanma sifatida foydalanish mumkin ekanligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarni qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, matn tahlili va tavsiflash kabi uslublar vositasida dalillanganligi, hosil bo'lgan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosalardan Eron xalqlari og'zaki ijodi va fors-tojik mumtoz poetikasi, obrazlar yaratish tizimi haqidagi ilmiy tasavvurlarni chuqurlashtirish, ularni bir tizimga solish, adabiyotshunoslikda badiiy san'atlarni to'laqonli o'rganish, so'z san'atlarining mazmun-mohiyati va tarixiy evrilish jarayonlari va nazariy-poetik xususiyatlarini yangicha uslub bilan asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma hamda tahlillardan oliy ta'lim tizimida, umumta'lim maktablarida yoshlarga adabiy-nazariy ma'lumotlar berishda, fors-tojik mumtoz adabiyotini qiyosiy o'rgatishda, shunga aloqador darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda, adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'atini tuzishda foydalanish imkonini berish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fors-tojik poeziyasida tashxis san'atining tarixiy shakllanish tamoyillari, nazariy masalalari va mumtoz she'riyatda tashxis san'atining qo'llanish omillarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tashxis san'ati antropomorfik, totemistik, animistik va allegorik qarashlar natijasida shakllanganligi, bu san'at ibtidoiy insonlarning tabiatga, uni o'rab turgan muhitga nisbatan qarashlari natijasida vujudga kelganligini isbotlab o'tganligi, nazariy poetikada tashxis san'ati istiora, majoz va tashbih san'atining maxsus bir turi sifatida qayd etilganini, ishda tashxisning mazkur so'z san'atlaridan butunlay farqlanishi va bu san'at jahon adabiyotshunosligida mavjud personifikatsiya, jonlantirish, intoq kabi so'z san'atlarining maxsus shakli ekanligi to'g'risidagi asoslangan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F-1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va

adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qaraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 17-iyundagi 17-01/185-son ma’lumotnomasi). Natijada tashxis san’atining jahon adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida shakllanish omillari ko‘rsatilgan, jonlantirish san’atining shakllanishini miflar va eroniy xalqlarning qadimiy yozma manbalari kontekstida tahlil qilinganligi badiiy obrazlar yaratilishida tashxis san’atining o‘rnini aniqlash imkonini beradi;

“Avesto” kitobining badiiy tuzilishida tashxis asosiy tasvir vositasi ekanligi, u orqali tabiat unsurlari, moddiy jismlar, mavhum tushunchalar, hayvonot va o‘simlik olami vakillari inson qiyofasiga kirib, Mitra, Tishtar, Ozar, Haum kabi ta’sirchan va xayoliy obrazlar yaratilganligi, tashxis san’ati Somoniylar va G‘aznaviylar davri shoirlari ijodida tabiat manzaralarini tasvirlash, sharob tayyorlash jarayoni badiiy talqini hamda qadimgi davr adabiyotining badiiy obrazlar yaratish an’analarini davom ettirish uchun qo‘llanilganligi dalillangan va ushbu xulosalardan Tojikiston Respublikasi Akademik B.G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universitetining Filologiya fakulteti ilmiy-tadqiqot va o‘quv-uslubiy ishlar sohasida, xususan, tojik mumtoz adabiyoti kafedrasining bosh ilmiy mavzusi “Poetika, tekstologiya va badiiy adabiyotni anglash” (№3.23.10.2020) muammosiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarida foydalanilgan. (Tojikiston Respublikasi Akademik B.G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universitetining 2022-yil 20-sentyabrdagi 3-son ma’lumotnomasi). Natijalar eroniy xalqlar adabiyotida vujudga kelgan asotir va miflarning mazmun va mundarijasi, mumtoz poetikada tashxis orqali yaratilgan badiiy timsollarning xususiyatlari va mohiyatini o‘rganish imkonini bergan;

Ro‘dakiy “Modari may” qasidasini ijod qilishi orqali may - sharob tayyorlash an’anasiga asos solganligi, keyinchalik mazkur badiiy uslub Bashshor Marg‘aziy, Farruxiy va Manuchehriy asarlarida ijodiy yondashuv asosida davom ettirilib, adabiy maktabga aylanganiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O’zbekiston” telekanalining “Bedorlik”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Ranginkamon” turkumidagi ko‘rsatuvlarini tayyorlashda Sharq mumtoz she’riyatidagi yuksak g‘oyaviy mazmun, ta’lim va tarbiyaga yo‘naltirilgan mavzular va asosiy masalalarni tarbiyaviy va estetik maqsadlarda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O’zbekiston” telekanali davlat unitar korxonasining 2022-yil 10-oktyabrdagi 04-36-1700-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuviga, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta’minlashga hamda tomoshobini tojik mumtoz she’riyati bilan tanishtirishda ma’naviy-axloqiy, badiiy-estetik bilimlarini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishi natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi 160 sahifadan iborat bo‘lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tashxis san’atining nazariy va tarixiy xususiyatlari”** deb nomlanib, uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli *“Tashxis san’atining ilmiy adabiyotlardagi tadqiq darajasi”* deb nomlangan. Unda tashxis san’atining shakllanish tamoyillari, jahon adabiyotshunosligida o‘rganilish darajasi, uning turli nazariy xususiyatlari to‘g‘risida bildirilgan ilmiy mulohazalar tadqiq qilingan.

Qadimgi Yevropa dunyosi xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma namunalarida tashxisning dastlabki alomatlari antropomorfizm, animizm va majoz qoliplari va badiiy uslublarda ko‘zga tashlanib, keyinchalik alohida badiiy san’at shaklida “personifikatsiya” va “olitsetvorenie” nomi bilan qayd etilgan. Tashxis san’atining shakllanish omillari, nazariy-poetik xususiyatlari va uning badiiy obrazlar yaratishdagi ahamiyati haqida jahon adabiyotshunosligida bir qator tadqiqotlar olib borilib, ilmiy mulohazalar bayon etilgan. Qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Aristotel “Poetika” risolasida tashxis san’ati xususiyatlarini allegoriya doirasida tekshirib, uni majoz san’atining bir turi deb hisoblaydi. Akademik M.Arnaudov tashxis san’atining shakllanish omillari haqida qiziqarli va asosli fikrlar bildirgan. G‘arb olimlaridan Pier Fontanie va Le Litre tashxisning nazariy xususiyatlari va turlari, shuningdek, uning metonomiya, sinekdoxa va istiora bilan aloqasi to‘g‘risida ma’lumotlar berishgan. Fransuz olimi Patrik Bekri majoz, istiora va tashxis san’ati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etib, tashxis san’atining kelib chiqishini istiora san’ati kontekstida o‘rgangan.

Rus adabiyotshunoslari M.I.Steblin-Kamenskiy, A.Kvyatkovskiy, A.Beletskiy, I.V.Rodnyanskaya, A.N.Veselovskiy, A.F.Losev va boshqalar o‘z risolalari va ilmiy maqolalarida tashxis va jonlantirish san’atining nazariy masalalarini hal etish, uning antik dunyo miflarida shakllanish omillarini yoritish va mumtoz poetikada tutgan ahamiyatini belgilash borasida bir qator ishlarni amalga oshirishgan. O‘zbek adabiyotshunosligida tashxis san’ati borasida H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova, N.Hotamov, B.Sarimsoqov, A.Rustamov, A.Hojiahmedov, Y.Is’hoqov T.Sobitovalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Forstojik adabiyotshunosligida tashxis san’atini alohida bir san’at turi sifatida tan olinishi XX asrdan boshlanadi. Muhammadrizo Shafeiy Kadkaniyning “Suvari

xayol” asarida va Afg‘onistonlik olim Malikushshuaro Abduihaq Betob tashxis haqida to‘xtalgan. Tojik adabiyotshunosligida ilk bor tashxis san’ati to‘g‘risida To‘raqul Zehniy ma’lumot berib o‘tgan. Keyinroq X.Mirzozoda, M.Shukurov, R.Hodizoda, T.Abdujabborov, S.Tabarov, A.Sattorzoda, M.Mulloahmadov, S.Sa’diyev, A.Boboyev, F.Huseynzodalar tashxisning poetik xususiyatlari, genezisi, badiiy adabiyotda qo‘llanilganligi to‘g‘risida ilmiy mulohazalar bayon etishgan. Yuqorida tilga olingan ilmiy risolalar va adabiyot nazariyasiga oid kitoblarda tashxis san’atining ayrim jihatlari o‘rganilgan. Bu esa tashxis san’atining poetik xususiyatlarini to‘liq aniqlash uchun yetarli emas.

Bobning ikkinchi fasli *“Tashxis san’atining paydo bo‘lish omillari”* deb ataladi. Mazkur faslda tashxis va jonlantirish san’atining shakllanish omillari haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Tashxis va jonlantirish san’ati jahon adabiyotining ilk badiiy tasvir vositalaridan bo‘lib, uning ildizlari insoniyat tarixining juda qadim davrlariga borib taqaladi. Tashxis san’atining shakllanishi ibtidoiy insonlarning atrof-muhit va hayot haqidagi g‘oyalariga bog‘liqdir. Ibtidoiy ajdodlarimiz tabiat unsurlari va predmetlar, o‘simlik va hayvonlar, undagi ro‘y berayotgan voqea va hodisalarga tirik mavjudot deb qarashgan, ularning barchasi harakatda, insoniy nutq va boshqa sifatlarga ega deb ishonilgan. Ibtidoiy davr odamlari o‘zlari tushunmagan narsalar va tabiat unsurlari haqida mifologik xulosalarga kelib, ularni qadimiy afsonalar va rivoyatlarda, adabiyotning ilk namunalarida aks ettirishgan.

Tashxis san’atining shakllanish omillari haqida ilmiy mulohazalar bayon etgan M.Arnaudov tashxisning paydo bo‘lishiga doir quyidagi xulosalarga kelgan: “O‘lik tabiatni jonlantirish adabiyotning qadimiy uslublaridan biridir. Jonlantirish san’atining shakllanishi va rivojlanishini ibtidoiy qavmlar, madaniy jihatdan taraqqiy etmagan qabilalar va bolalar ruhiyatida ko‘rishimiz mumkin. Analogiya qoidalariga ko‘ra tabiatning ibtidoiy odamlar ongida sodda tarzda tushunilishi bizni shu xulosalarga undaydi. Ibtidoiy insonlar tasavvurida atrofdagi unsurlar, osmon jismlari va turli voqelik tirik mavjudot sifatida qaralgan va ularni inson hayotiga ta’sir etuvchi kuch deb bilib, ma’lum darajada ulardan hayiqishgan[9]. Qadimiy insonlar ilm-fan va tabiatning tuzilishi haqida ma’lum bir tushunchalarga ega bo‘lmagan, tabiatning asl mohiyatini, unda ro‘y beradigan hodisalarni tushunishmagan. Natijada dunyoni turli rivoyat va miflar yordamida anglash urfga aylangan. Masalan, qadimgi ajdodlarimiz fikricha, tabiatning barcha unsurlari, osmon jismlari, tabiiy hodisalar, hayvonlar, qushlar va o‘simliklar insoniy qiyofaga ega bo‘lib, ko‘p hollarda insondek harakatlana olgan. Ibtidoiy ajdodlarimiz tushunchasi bo‘yicha tabiat unsurlari oddiy inson qiyofasidagi darajasidan ko‘tarilib, ma’bud, xudo va yarim xudo darajasigacha yetkazilgan. Bu, o‘z navbatida, tashxis san’atining ahamiyati odamlarning borliq haqidagi tushunchalariga mos ravishda rivojlanib, yangi badiiy obrazlar yaratilishi uchun muhim omil bo‘lgan. Masalan, Eron xalqlarining birinchi xudosi sof osmon va olam muhiti edi. Agar mazkur aqidaning kelib chiqishiga nazar solsak, odamlar boshidanoq osmonni jonli mavjudot deb tasavvur qilib, uni insonlarga rizq va ne’mat

[9] Арнаудов М. Психология литературного творчество. – Москва: Прогресс, 1985. –232-233 стр.

berguvchi zot, g‘azablanganda esa izg‘irin sovuq va shiddatli bo‘ron-to‘fonlarni yuborguvchi shaxs sifatida tushunishgan.

Aytish mumkinki, tashxis va jonlantirish san’ati badiiy tasvirning ilk vositalaridan biri bo‘lib, ibtidoiy insonlarning xalq og‘zaki ijodida, ayniqsa, afsona va miflarda ko‘p qo‘llanilgan.

Birinchi bobning *“Tashxis san’atining nazariy-poetik xususiyatlari”* nomli uchinchi faslida tashxis san’atining nazariy va poetik xususiyatlari o‘rganilgan. Fors-tojik adabiyotida tashxis san’ati tabiatning moddiy va mavhum unsurlari, voqea va hodisalar, osmon jismlarini jonlantirish va inson qiyofasida gavdalantirish jarayonida qo‘llanilgan. Adabiyotshunoslikda turli jismlar, mavhum tushunchalar, qushlar va hayvonlarni jonlantirish borasida har xil fikr va mulohazalar mavjud bo‘lib, ba’zi hollarda bir-biridan farq qiladigan nazariy masalalar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, tojik, rus va g‘arb adabiyotshunosligida jonlantirish san’ati vositasida tabiat, hayvonot dunyosi vakillari, shuningdek, o‘simliklarga insonga xos bo‘lgan barcha fazilatlarini berish orqali ularni harakatlantirish va so‘zlashtirish nazarda tutiladi. Biroq o‘zbek adabiyotshunosligida bu borada farqlar mavjudligi ko‘rinadi. O‘zbek she’rshunosligida jonsiz mavjudotni jonlantirish va ularga nutq berish alohida jonlantirish va intoq san’atlari doirasida o‘rganiladi. Masalan, A.Hojiahmedov o‘zining “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” nomli kitobida tashxisni quyidagicha ta’riflagan: “Tashxis (jonlantirish) - hayvonlar, qushlar va jonsiz narsalarga inson xususiyatlarni ko‘chirish san’atidir”[10]. Badiiy obrazlarning tashxislanishi tasvir predmetining barcha insoniy xususiyatlarni o‘zida mujassam etganidagina takomillashadi. Agar tasvirlangan obraz faqat insonning xatti-harakatini o‘zida mujassam etsa-yu unga fikrlashi va bayon etish uchun so‘zlash qobiliyatini bermasa, unda tasvir insonning barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettira olmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tashxis va intoq san’ati aslida tasvirning go‘zal va yorqin bo‘lishiga xizmat qiluvchi yagona va mukammal so‘z san’atidir. Tashxis san’ati vositasida insonlar ko‘zi ilg‘amaydigan, aql va tafakkur orqali idrok etishi mumkin bo‘lgan, umuman olganda, tabiatning mavhum tushunchalari jonlantirilib, shaxs fazilatlarini namoyon etadi. Fors-tojik mumtoz poetikasida tashxis san’atidan foydalanish natijasida turli badiiy obrazlar yaratilgan. Jumladan, “sarvning tashrif buyurishi”, “lolaning kulishi”, “bulutning g‘amgin insondek yig‘lashi”, “yulduzning ko‘z qoqishi”, “bahorning kelin qiyofasida kirib kelishi” va boshqalar bevosita jonlantirish natijasida yuzaga kelgan. Shoir tashxis san’atidan foydalanib, umuman, ko‘zga ko‘rinmaydigan faqatgina aql va idrok vositasida anglash mumkin bo‘lgan mavhum tushunchalarni jonlantirib, ularni o‘quvchi tafakkurida gavdalantiradi. Masalan, bilim va aql, adolat va nohaqlik, haqiqat va yalg‘on hamda boshqa mavhum tushunchalarning jonlantirilishi natijasida insoniy xislatlar qamrab olinib, aniq shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Badiiyat ilmi nomi bilan mashhur fors-tojik mumtoz she’rshunosligida tashxis ko‘p asrlar davomida alohida bir san’at turi sifatida qayd etilmagan. O‘rta asrlar fors-tojik adabiyotshunosligida olimlar tashxis san’atining nazariy xususiyatlari va ahamiyatini e’tiborga olmasdan uni istiora yoki tashbih san’atining bir turi sifatida

[10] Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. –Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 38.

qayd etishgan. Fors-tojik she'riyatida tashbih va istiora san'ati tasvirning asosiy vositalaridan hisoblangan. Mumtoz fors-tojik adabiyotida tashbih va istiora qo'llanilgan she'riyat namunalari nihoyatda ko'p bo'lib, tashxis mazkur she'rlarda asosan, mo'jaz shaklda namoyon bo'lganligi uchun she'rshunoslar uni istiora va tashbih san'atidan ajratmaganliklari bois tashxisning nazariy xususiyatlarini belgilashmagan. Tashxis va jonlantirish san'ati shakl jihatidan istioraga o'xshaydi. Masalan, Kamol Xo'jandiyning ushbu she'rida:

Ba ro'yat da'vii xubi chu domangir shud gulro,
Bad-in ma'ni namedorad sabo dast az girebonash[11].

Mazmuni: Gul husnda sendan chiroyli ekanligiga da'vo qiladi. Ushbu mazmunda sabo yoqasidan qo'lini olmaydi.

Badiiy tasvir butunlay tashxis va jonlantirishga asoslangan. Shoir gulning go'zallik bobida mahbubaga tengligiga da'vo qilganini, lekin bu da'vo saboga yoqmaganini, shuning uchun ham qo'li bilan yoqasidan ushlab olganini ta'kidlaydi. Bu baytda sabo ham, gul ham jonlantirilib, insondek harakat qiladi.

Mumtoz fors-tojik she'rshunosligida istiora turlari bir-biridan farqlangan, ko'p hollarda tabiat manzaralari va jonsiz narsalarni ifodalashda qo'llanilgan tasvir vositasi istioraning maxsus turi yoki "isitiorai makniya" sifatida zikr etilgan. Tashxis san'atining istiora san'ati tarkibida belgilanishini Shams Qays Roziyning "Al-mu'jam" va Atoulloh Mahmud Husayniyning "Badoe' us-sanoe'" asarlarida ham kuzatish mumkin. Atoulloh Mahmud Husayniy tashxis san'atini istioraning bir turi sifatida belgilaydi va so'zining isboti sifatida she'riy misol keltiradi:

Piri sipehr yod zi ahdi shubob kard,
K-az mehru mah du didai xudro pur-ob kard[12].

Mazmuni: Yoshi ulug' falak yoshlik chog'larini yod etib, ishq hajridan ikki ko'zi giryon bo'ldi.

Ko'rib chiqilgan baytda falakning yoshi ulug' inson sifatida tasvirlanishi, uning yoshlik chog'larini eslab ko'zi giryon bo'lishi bevosita tashxis san'ati asosida bayon etilgan.

Tashxis va masal o'ziga xos umumiy xususiyatlarga ega. Masal epik janrning kichik shakli bo'lib, uning qahramonlari hayvonlar, qushlar, o'simliklar dunyosi vakillaridan iborat. Masal adabiy turlardan biri bo'lib, tashxis san'ati vositasida yuzaga chiqadi. Masalning tashxis san'atidan ajralib turadigan xususiyatlari uning adabiy shakli, mavzu qamrovi va obrazlarida namoyon bo'ladi. Masaldan faqatgina badiiy asarlarda hayvonot, qushlar va mevalar obrazlarini tasvirlashda foydalaniladi. Ammo masalga nisbatan tashxisning foydalanish doirasi juda keng. Tashxis hayvon, o'simlik va qushlar olami vakillariga inson qiyofasini, sifatlarini beribgina qolmasdan, balki barcha jonsiz unsurlar, mavhum tushunchalar va tabiatning boshqa vakillariga ham jon bag'ishlaydi va ularda insoniy xususiyatlarni mujassamlashtiradi. Tashxis san'ati ifodalanish xususiyatlari asosida ikki xilga bo'linadi: mufassal tashxis va mo'jaz tashxis. Mufassal tashxisda hikoyaning qamrovi keng bo'lib, u boshdan-oyoq ana shu san'atning unsurlaridan tashkil topadi

[11] Камоли Хўҷандӣ. Қуллиёт. Ҷ 2. –Душанбе: Ирфон, 1985. –43 с.
[12] Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадоеъ-ул-саноеъ.-Душанбе: Ирфон, 1974. –156 с.

va tashxisning barcha xususiyatlarini ifodalab, o‘quvchi ko‘z o‘ngida har tomonlama namoyon bo‘ladi. Tashxisning mo‘jaz shaklida voqealar bir lahzagina amalga oshadi va u boshqa badiiy san’at turlari qatorida qo‘llaniladi.

Dissertatsiyaning **“Qadimgi fors-tojik adabiyotida tashxis san’atining o‘rni”** nomli ikkinchi bobining *“Qadimgi Eron asotirlarida tashxis san’atining mavqei”* nomli birinchi faslida xalq og‘zaki ijodida afsona, rivoyat va qo‘shiqlarda jonlantirish va tashxis san’atining tasnifi, badiiy xususiyatlari, diniy qarashlar hamda qadimgi diniy manbalarda mazkur san’atning keng qo‘llanish omillari va ularning badiiy-adabiy xususiyatlari haqida so‘z boradi. Eron xalqlari adabiyotining islomdan oldingi davrida tashxis san’ati xalq og‘zaki ijodi va yozma asarlarida ko‘p qo‘llanilgan badiiy san’atlardan biridir. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida, qadimiy asotir va rivoyatlarda mazkur san’atning ko‘plab namunalarini uchratishimiz mumkin. Asotir va rivoyatlar insoniyatning ijtimoiy-maishiy hayoti, diniy va falsafiy e’tiqodlaridan hosil bo‘lgan tasavvurlari mahsulidir.

Asotir va miflar qadimgi insonlarning bilim va ko‘nikmalari haqida tushuncha beradi va ular xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydi. Asotirda insonlar atrof muhit va tabiat haqidagi dastlabki tasavvurlari va xulosalarini aks ettirishgan. Eron xalqlari adabiyotining qadimiy davrida ibtidoiy insonlarning turmush darajasi, dunyoqarashi va tabiatga bo‘lgan munosabati borasida ko‘pgina afsona va rivoyatlar mavjud. Masalan, Mitra obrazi nafaqat Eron xalqlari adabiyotida, balki jahonning ko‘pgina xalqlari adabiyotida ham mifologik siymo sifatida muhim ahamiyatga ega. Mitra “Avesto”da quyosh ma’budi sifatida namoyon bo‘ladi va u quyidagi fazilatlarni o‘ziga jamlagan: donishmand shaxs sifatida ming quloq, o‘n ming ko‘z va o‘n ming josus egasidir va hech qachon uxlamaydi. Mitra yengilmas bahodir sifatida gunohkorlar va Ahriman devini jazolaydi. Chinvat (qiyomat) kunida Surush, Rashnu bilan birgalikda insonlarni so‘roq qiladi. U o‘zining jangovar aravasida doimo osmonni kezib, zulmat kuchlarining zafar qozonishlariga qarshilik qiladi. Mitra afsonalarda insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni qabul qilib, taqvodor va jangchi sifatida ko‘rinish beradi va Ahuramazda kuchlari tomonida turib, devlar bilan jang qiladi.

Mehr-Yashtning o‘n birinchi kardasi 47-48 bandlarida Mitrani yengilmas jangchi qiyofasida ko‘ramiz. U yaxshilik va yovuzlik kuchlari o‘rtasida bo‘lib o‘tayotgan urushda o‘z jangovar aravasi bilan qatnashib, mehrdurujlar tomon oshiqadi, mehrdurujlarni asirga olib, bog‘laydi va ko‘zlarini ko‘r, quloqlarini kar qilib, baquvvat oyoqlarini sindiradi, natijada ularning jang qilishga holi qolmaydi:

“Nomovare, ki agar xashmgin shavad, dar miyoni jangovaroni du sarzamini jangjo‘ ba ziyoni sipohi dushmani xunxor, ba siteza bo radahoi ba razm daromextai dushman, asponi faroxsum barangezad.

Agar Mehr ba ziyoni sipohi dushmani xunxor, ba sitaza bo radahoi ba razm daromextai dushman dar miyoni jangovaroni du sarzamini jangjo‘, asponi faroxsum barangezad, on goh dasthoi mehrdurujonro az pusht bibandad, chashmhoi ononro

barovarad, go‘shhoi ononro kar kunad va ustuvorii pohoi ononro bargirad, bad-on son, ki kasero yoroi padidori namonad”[13].

Mazmuni: Agar u atoqli bahodir g‘azablansa, ikki sarzamin o‘rtasidagi jangchilar orasiga kirib, qonxo‘r dushman lashkari ziyoniga jang qiladi. Agar Mitra qonxo‘r dushman lashkarining qatorlariga kirib, ot-aravasi bilan mehrdurujlarga hujum qilsa, ularning qo‘llarini orqasidan bog‘lab, ko‘zlarini chiqaradi, quloqlarini kar, baquvvat oyoqlaridan ustuvorlikni oladi toki ulardan hech birining jang qilishga holi qolmasin.

Mitra obrazining mifologik tasviri dastlab eroniy qavmlar o‘rtasida tarqalgan bo‘lsa, keyinchalik dunyo xalqlarining diniy-falsafiy va mifologik qarashlarida o‘z aksini topgan. Mitra obrazi Yunon, Rim, Hind va hattoki qadimiy Misr mifologiyasida ham ko‘zga tashlanadi. Taniqli sharqshunos olim Y.E.Bertels Mitra obrazining ahamiyatini quyidagicha ta’kidlaydi: “Mitra quyosh va haqiqat ma’budi bo‘lib, maxsus maqomga ega. Ma’lumki, qadim zamonlarda bu ma’budga sig‘inish butun Yevropa bo‘ylab urfga aylangan edi”[14]. Yevropa xalqlari orasida Mitraning afsonaviy obrazi dastlab o‘zining eroniy xususiyatlarini saqlab qolgan, keyinchalik esa yangi jihatlarni qabul qilib, takomillashtirilgan. Eroniy xalqlar miflaridagi Mitra obrazining Rim Mitrasiga ta’sirini mifshunos olim M.Drezden quyidagicha baholaydi: “Agar Rim Mitrasiga murojaat qilsak, uning obrazida qadimgi eroniy xususiyatlarning mavjudligini kuzatish mumkin. Mitra “Avesto”da bayon etilgan hamda eroniy bo‘lmagan sifatlarni o‘zida jamlagan[15]. M.Drezden Rim Mitrasining badiiy obrazi bevosita Eron Mitrasi ta’sirida shakllangani va qadimgi Yevropa xalqlarining dunyoqarashi va naturalistik diniy aqidalarini ifodalashga xizmat qilganini ta’kidlaydi.

Ilmiy izlanishlar natijasida tashxis san’ati ibtidoiy odamlarning dunyoqarashi va borliq haqidagi tasavvurlarini ifodalash uchun muvofiq ekanligi aniqlandi.

Ushbu bobning *“Qadimgi yozma manbalar va adabiy matnlarda tashxis san’ati”* nomli faslida qadimgi fors-tojik adabiy, ilmiy, badiiy, diniy manbalari o‘rganildi, ibtidoiy yozma manbalarda jonlantirish va tashxis san’atining poetikasi, shakl va uslubiy xususiyatlari qiyosiy tarzda tadqiq etildi. Tashxis va jonlantirish san’ati “Avesto” kitobida mufassal va mo‘jaz shaklda turli mazmundagi obrazlarni tasvirlashda foydalanilgan. Tashxis san’ati “Avesto” kitobida turli osmon jismlari, tabiat hodisalari va hayvonlar, qushlar va o‘simliklarni jonlantirib, insonga xos bo‘lgan sifatlarni ularga berish jarayonida namoyon bo‘ladi. “Avesto” kitobida jonlantirilgan tabiat unsurlari va koinot jismlarining mazmun-mohiyati va tasvir predmetiga qarab ularni to‘rt guruhga ajratish mumkin:

1. Mavhum tushunchalarni jonlantirish guruhi: bu guruhga inson ko‘zi bilan ko‘rishi mumkin bo‘lmagan va aql vositasida idrok etishi mumkin bo‘lgan mavhum hodisalar va tushunchalar shaxslantirilib, insoniy sifatlarni o‘zida ifodalaydi.

---

[13] Авасто. Кӯҳнатарин сурудҳо ва матнҳои эронӣ. (Гузориш ва пажӯҳиши Ҷалили Дӯстхоҳ). – Душанбе: Қонуният, 2001. – 258-259 с.

[14] Бертелс Е.Э. Избранние труды. Т.1. История персидско–таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960. – 23 стр.

[15] Дразден М. Мифология древнего Ирана. // Мифологии древнего мира М:.Наука, 1977.-12 стр.

Bularga g‘azab, yomonlik, yaxshilik, haqiqat va boshqa tasvirlarni kiritishimiz mumkin.

2. O‘simlik va daraxtlarni jonlantirish guruhi: bu guruhga insoniy qiyofani kasb qilib, voqea va hodisalar jarayonida qatnashadigan o‘simlik olami vakillari Haum, Xarvistuxmak, Anush, Barsam va boshqalar kiradi.

3. Hayvonlar va qushlarni jonlantirish guruhi: bu guruh “Avesto” kitobida insoniy fazilatlarni o‘ziga olib, shaxs sifatida namoyon bo‘lgan badiiy obrazlarning eng katta qismlaridan biridir. Gaushurvan, Dravaspa mazkur guruh tashxislarining yorqin timsolidir.

4. Tabiat unsurlarini jonlantirish guruhi: bu guruh o‘z navbatida jonlantiriladigan tabiat hodisalari va osmon jismlariga qarab ikki qismga ajraladi. 1. Tabiatning moddiy unsurlari tog‘lar, daryolar, yer, yulduzlar, quyosh va boshqalar inson fazilatlarini qamrab, o‘zidan harakatlanish, so‘zlash, jang qilish, mamnun bo‘lish va boshqa sifatlarni namoyon etadi. Mitra (Mehr), Voruna va boshqalar. 2. Tabiat hodisalarini jonlantirish qismida borliq olamda yuzaga keladigan tabiiy hodisalarning so‘z san’ati qudrati vositasida insoniy xususiyatlarni o‘zida mujassam etishi nazarda tutiladi. Bunday tashxislarga momoqaldiroq - Indra, yomg‘ir yulduzi Tishtar hodisalarini kiritishimiz mumkin.

Umuman olganda, eroniy xalqlarining islomgacha bo‘lgan adabiyotida tashxis san’ati muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lib, undan turli jonsiz tabiat hodisalari, hayvonlar, qushlar, o‘simliklar va koinot jismlari badiiylashtirilib, aniq va go‘zal obraz va siymolarni yaratishda foydalanilgan.

